

## “IJTIMOIY TARMOQLAR JUDA KUCHLI SIYOSIY QUOLDIR”

Xofizov Sharofiddin Rashid o'g'li

*Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti “Amaliy siyosatshunoslik”*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolamda "Ijtimoiy tarmoqlar juda kuchli siyosiy qurol"ligi haqida so'z boradi. Hozirgi kunda ijtimoiy tarmoqlar qudratli axborot quroliga aylanganligi, siyosat dunyosi aloqalar o'rnatilishining muhim omil vazifasini bajarishi, bugungi kun uchun sir emas. Ijtimoiy tarmoqlar yordamida siyosiy dunyo yangiliklari, jamiyatni qiynayotgan muammolar va ularga beriladigan yechimlarning eng to'g'risini topishda, ijtimoiy tarmoqlar muhim ahamiyat kasb etadi va shu sababdan, hozirgi davrda har bir davlatning siyosiy aloqalarini shakllantirishda, ijtimoiy tarmoqlarni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shunday ekan, ijtimoiy tarmoqlardagi axborotlar va ulardan oqilona foydalanishni nafaqat siyosat dunyosi vakillari, qolaversa jamiyatning asosiy negizi bo'lgan har bir fuqaro, ulardan to'g'ri va oqilona foydalanishni bilishlari lozim!*

**Kalit so'zlar:** *Axborot, global, texnologiya, interaktiv aloqa, virtual aloqa, internet, innovatsiya, ijtimoiy tarmoq, modernizatsiya.*

*“Оммавий ахборот воситалари оммавий қўғин воситаларидан кам емас.”*

**Pyotr Kapitsa**

Barchamizga ma'lumki, bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar, siyosiy harakatlarning shakllanishi va rivojlanishida muhim rol o'ynay boshlaydi. Negaki ijtimoiy tarmoqlar siyosiyat dunyosi va siyosiy aloqaning o'rnatilishida, siyosiy muammolarni hal qilish uchun ham kuchli vosita bo'libgina qolmay, shu bilan bir qatorda juda kuchli siyosiy qurol bo'lishi mumkinligini ham unutmashimiz kerak. Hozirgi kunda bir qancha davlatlarda ijtimoiy tarmoqlar ma'lum bir fuqarolik faolligini yaratishga imkon beradigan platforma sifatida xizmat qiladi. Ammo ijtimoiy tarmoqlar hali siyosiy faoliyatga aylanmagan. Shunga qaramasdan amaliyot shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy tarmoqlar ko'pgina davlatlarning siyosiy hayotiga shu qadar chuqur kirib borganki, ularning siyosiy kurash vositasi sifatida imkoniyatlari tobora faollashib bormoqda.

Buning asosiy sabablaridan biri, hozirgi vaqtda ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilarining ko'pligi va ijtimoiy tarmoqlarning dunyoda axborot yaratish va tarqatishning asosiy vositalaridan biriga aylanganligidadir. Misol uchun, 2021 yil holatiga ko'ra, Internetdan dunyo aholisining 50 foizidan ko'proq qismi foydalangan bo'lib, bu 3,9 milliard kishini tashkil etadi degani. Ushbu ko'rsatgich mamlakatimiz O'zbekiston Respublikasida Internet foydalanuvchilari soni 2021 yil oxiriga kelib 27,2 milliondan oshganligini va bu ko'rsatgich 2020 yilga nisbatan internetga ulanganlar 23% ga oshganligini bildiradi. Bir yil oldin ular 22 milliondan biroz ko'proq edi. Shuningdek, oxirgi hisobotlarga ko'ra, hozirgi kunda O'zbekistonda 100 aholiga 12,7 ta keng polosali ulanish abonentlariga to'g'ri keladi. Yuqoridagilardan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, ushbu ko'rsatkichlar texnologiyalar va telekommunikatsiyalarning jadal rivojlanishiga hamda ijtimoiy tarmoqlardan siyosat dunyosida qurol sifatida foydalanishga olib keladi.

Shu sababli, ijtimoiy tarmoqlarni juda kuchli “Siyosiy qurol” sifatida hamda davlatning siyosiy jarayonlariga ta’sir etuvchi vosita sifatida qarashimiz lozim! Negaki ular orqali, jamiyatda vahima qo'zg'atish, ommani noto'g'ri yo'nalishga yo'naltirish va umuman samaradorlikning yuqori ulushiga ega bo'lgan foydalanuvchilarning ruhiy holatiga ta'sir ko'rsatishda, haqiqiy ommaviy qirg'in quroli sifatida foydalanish mumkin. Bu esa, siz ijtimoiy tarmoqqa ro'yxatdan o'tganingizdan so'ng, butun dunyoni bir necha daqiqada qamrab oladigan "portlovchi zanjir" ning bir qismiga aylanganingizni anglatadi!

Binobarin, zamonaviy dunyoda ijtimoiy tarmoqlarning rolini idrok qilish boshqacha. Ba'zilar ularni jamoat tashabbusini amalga oshirish imkoniyati, boshqalari esa davlatlar xavfsizligiga tahdid deb bilishadi. Qizig'i shundaki, fikrlar muammolarning tabiatiga qarab farq qilishi mumkin.

Shu jumladan, yaqinda g'arbiy Evropada ijtimoiy tarmoqlar avtoritar rejimlarga ega mamlakatlar aholisi uchun erkinlik ramzi sifatida qaralganligini oladigan bo'lsak: bunda biz, Facebook, Twitter va ingliz yoshlari orasida mashhur bo'lgan BlackBerry Messenger chat kabi resurslar haqida gapirishimiz mumkin, bu esa xabarlarini shifrlashni ta'minlaydi va shuning uchun razvedka xizmatlarini uzatilgan ma'lumotlarga kirishni qiyinlashtiradi. Yuqoridagi misoldan kelib chiqadiki, ijtimoiy tarmoqlar turli maqsadlar uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan, siyosat dunyosidagi muhim bir vositadir.

Biroq shunga qaramasdan, hozirgi kunda dunyoning yetakchi davlatlari xalqaro siyosatni amalga oshirish uchun ijtimoiy tarmoqlarning Internet-texnologiyalari bilan to'ldiriladigan diplomatiya imkoniyatlaridan foydalanishni o'z ichiga olgan, keng qamrovli innovatsion yondashuvni amalga oshirmoqdalar. Negaki, ijtimoiy tarmoqlar orqali ular hukumatning bevosita va bilvosita qo'llab-quvvatlanishi bilan, dasturiy mahsulotlarni xavfsiz tarqatish tarmoqlaridan foydalanishga asoslangan. Ushbu yondashuv, agar kerak bo'lsa, qurolli kurash vositalari va tizimlaridan foydalanishni istisno qilmaydi (biz Liviya misolida ko'rganimiz). Bunday strategiyani amalga oshirish uchun ijtimoiy tarmoqlar yildan-yilga hukumatga qarshi guruhlarni yaratish uchun asosiy platforma va aloqa uchun qulay vosita sifatida xizmat qilib kelmoqda.

Biroq, siyosat nuqtai nazardan qaraydigan bo'lsak, ijtimoiy tarmoqlarning salohiyati juda katta. Buning sababi, hozirgi kunda deyarli har bir o'zini hurmat qiladigan siyosatchi, ijtimoiy media va blog platformalarida o'z hisobiga ega, o'zi haqida siyosiy, tashviqot yoki shaxsiy ma'lumotlarni tarqatadi. Shunday qilib, nazariy jihatdan deyarli har bir fuqaro uni qiziqtirgan siyosatchi bilan muloqotga kirishishi mumkin.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlab o'tishimiz joizki, ijtimoiy tarmoqlar har bir davlatning siyosiy hayotida, har bir soha, yo'nalishlar va turli xil aloqalarida muhim rol o'ynaydi. Negaki, hozirgi kunda zamonaviy telekommunikatsiya va axborot resurslarining rivojlanishi, dunyo aholisi o'zlarining kundalik hayotini INTERNETsiz tasavvur eta olmasligi ham, ijtimoiy tarmoqlar va ulardagi imkoniyatlarning siyosiy dunyodagi ahamiyatini mustahkamlab bormoqda.

Shu sababli, ijtimoiy tarmoqlarni jamiyatdagi siyosiy jarayonlarga ta'sir ko'rsatadigan kuchli qurol sifatida qarab, undan faqat oqilona va foydali tomonlarni ko'zlagan holda foydalanishni amaliyotga tadbiiq qilsak, maqsadga muvofiq bo'ladi. Zero, har bir ijtimoiy tarmoq foydalanuvchisi, INTERNET imkoniyatlaridan to'g'ri foydalanib, uning cheksiz

axborotlaridan jamiyatdagi muammolarni hal etishda va ushbu muammolarga barham berish yo'lida foydalansa, bu faqatgina davlatning nafaqat ichki va tashqi "Siyosiy imidji"ni yaxshilaydi, qolaversa uning ijtimoiy-siyosiy hayotidagi masalalarga barham berishda faqatgina yaxshi bir vosita sifatida xizmat qiladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov- " Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch .
2. «Третья волна интернета. Какими качествами должен обладать предприниматель будущего» *Стив Кейс*.
3. Белинская Е.П. Язык Интернет-коммуникации и социолингвистическая ситуация современности // Современная социальная психология: теоретические подходы и прикладные исследования. - Т., 2011. № 10. - С.6.
4. Ёшларнинг ижтимоий тармоқлар орқали мамлакат имижини оширишдаги роли - Беруний Алимов <http://beruniyalimov.uz/archives/705>
5. Патрикеева Э.Г. Влияние виртуального пространства сети Интернет на жизненные ценности современной молодежи // Молодой ученый. — 2015. — № 10 (90). — С. 1342-1346. — URL: <https://moluch.ru/archive/90/18990/> (дата обращения: 19.04.2021).
6. G.G Gaffarova, N.Z. Saydaliyeva. (2020). The influence of social networks on youth thinking and activity. *JournalNX - A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal*. 6 (5), 105-108.